



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 02.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Sansarova Zarina Raxmatillo qizi.,  
Tojiboyev Murodali Umaraliyevich  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Uzbekistan

### ASKOMITSETLARNING UMUMIY TAVSIFI, AHAMIYATI, VAKILLARI

**Abstract:** This article provides information on the general description, importance, and representatives of ascomycetes. The bottom and top representatives of the class are vegetative, asexual and sexually reproductive. Ascomycetes parasitize agricultural crops and cause various diseases. Some of them have useful aspects, such as antibiotics, vitamins, etc.

**Keywords:** false body, mycelium, pore, gametangia, ascospore, ascostroma, nudibranch, saprotroph.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada askomitsetlarning umumiy tavsifi, ahamiyati, va vakillari haqida ma'lumot yoritib berilgan. Sinfning tuban hamda yuqori vakillari, vegetativ, jinsiz va jinsiy ko'payishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Askomitsetsimonlar qishloq xo'jalik ekinlarida parazitlik qilib har xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ularning foydali tomonlari ham bo'lib ba'zi turlaridan antibiotiklar, vitaminlar va boshqa moddalar olinadi.

**Kalit so'zlar:** soxta tana, mitselliy, pora, gametangiya, askospora, askostroma, yalang'och xaltachalilar, saprotrop.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об общем описании, значении и представителях аскомицетов. Нижние и верхние представители класса вегетативные, бесполое и половоразмножающиеся. Аскомицеты паразитируют на сельскохозяйственных культурах и вызывают различные заболевания. Некоторые из них имеют полезные свойства, например, антибиотики, витамины и т. д..

**Ключевые слова:** ложное тельце, мицелий, пора, гаметангий, аскоспора, аскострома, голожаберник, сапротроф.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Sansarova , Z., & Tojiboev , M. GENERAL DESCRIPTION, IMPORTANCE, AND REPRESENTATIVES OF ASCOMYCETES. Universal International Scientific Journal, 1(9), 26–28. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1204>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14293889>

Askomitsetsimonlar sinfi, zamburug'lar bo'limining kata sinfi bo'lib, uning tarkibiga tuzulishi va xayot tarsi xilma-xil bo'lgan 30000 ga yaqin tur kiradi. Bu sinf vakillarining xususiyati ko'payish vaqtida sporalar alohida xaltacha ichida hosil bo'ladi. Xaltacha ichida 8 ta askospora yetiladi. Askomitsetsimonlarning vegetativ tanasi shoxlangan gaploidli mitseliydan iborat. Mitseliy bir yoki ko'p yadroli, to'siqli bo'ladi. To'siq mitseliy devorlaridan markazga tomon o'sib, o'rtada ochiq joy qoladi bunga pora deyiladi. Pora orqali hujayraning yadro, sitoplazma va uning orgonoidlari harakat qiladi .Bundan tashqari, pora orqali oziq moddalar o'tib o'sish zonasiga yetib boradi.

Tuban taraqqiy etgan askomitsetsimonlarning ayrim vakillarida mitseliy bo'lmaydi. Vegetativ tana bir

hujayrali kurtaklardan tashkil topgan. Bunday vegetativ tanaga "soxta tana" deyiladi. Masalan, achitqi zamburug'lar. Vegetativ tanada haqiqiy to'qima faqat parazitlikka ixtisoslashgan labulbenlilarda uchraydi.

Askomitsetli zamburug'larning hujayra devorida 20-25% xitin bo'ladi. Achitqi zamburug'larida xitin juda oz miqdorni tashkil etib 1% ga boradi. Hujayra devorining 80-90% ni glyukap moddasi egallaydi. Askomitsetlarning taraqqiyot shaklida jinssiz ko'payish muhim ahamiyatga ega. Jinssiz ko'payish vaqtida hosil bo'ladigan spora konidiydir. Konidiy gaploidli mitseliylarning sirtida hosil bo'ladi. Konidiylar zamburug'ning vegetatsiya davrida hosil bo'lib tez tarqaladi.

Tuban taraqqiy etgan askomitsetlarning jinsiy ko'payishi gametalarga ajralmagan ikki mitseliyning uchlarini qo'shilishi bilan sodir

bo'ladi. Bunday hujayralar gametangiya deyiladi. Jinsiy ko'payishga esa gametangiamiya deyiladi. Askomitsetli zamburug'larning ko'pchilik turlarida jinsiy organlarining qo'shilishi reduksiyalangan. Ba'zan anteridiy o'smay qoladi, bunday hollarda anteridiy vazifasini konidiy, vegetativ gifalar yoki mayda hujayrachalar bajaradi. Ba'zan 2 jinsli gametangiyalari rivojlanmasdan qolsa, u vaqtda mitselliyning somatik hujayralari qo'shiladi, bunga somatogamiya deyiladi. Askosporalar har xil: sharsimon, ellipsimon yoki ipsimon bo'ladi. Bunday sporalar bir hujayrali yoki bo'g'inli ham bo'lishi mumkin. Ba'zan askosporalar popukli bo'lib tarqalishga yordam beradi. Tuban askomitsetlarning xaltachasi bevosita mitseliyda hosil bo'ladi, lekin yuqori askomitsetlarda xalta mevatanalarda askostromada vujudga keladi. Askomitsetsimonlarda mevatana bo'lishi yoki bo'lmasligiga qarab, ular 3 ta kenja sinfga

bo'linadi: 1) yalang'och xaltachalilar, 2) euaskomitsetlilar va 3) lokulaskomitsetlilar. Askomitsetsimonlar yer yuzining hamma geografik mintaqalarda tarqalgan. Ular tuproqda, o'simlik qoldiqlarida yashab saprotrof oziqlanadi. Saprotrof oziqlanuvchi askomitsetlarning ba'zi turlari oziq-ovqat va meva sabzavotlarning ustida yashab, po'panak hosil qiladi. Askomitsetsimonlarning ayrim turlari yuksak o'simliklar, suv o'tlar, lishayniklar, hayvon va odam tanasida yashab, parazitlik qiladi. Har xil kasalliklarni qo'zg'atadi. Askomitsetlarning ba'zi turlari qishloq xo'jalik ekinlariga parazitlik qilib, shudring, oidium, parsha kabi kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shu bilan bir vaqtda askomitsetsimonlarning foydali tomonlari ham bor. Ularning ba'zi turlaridan antibiotiklar, vitaminlar, fermentlar, alkaloidlar va spirt olinadi. Biologiya va genetika sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishda askomitsetsimonlardan obyekt sifatida foydalaniladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zaharov V.B., Mamatov S., *Общая биология*. М., 2002;
2. Chyen-sov Yu.S., *Общая цитология*, М., 1984;
3. Grin N., Staut U., Teylor D., *Biologiya*, t. 1-3. М., 1990;
4. Mavlonov O., *Biologiya (Ma'lumotnoma)*, Т., 2003.
5. N.Grin va boshq. "Biologiya". 1990y.
6. A.S.Troshin va boshq. "Sitologiya". 1970y-.
7. T.B.Boyqobilov, X.Ikromov "Sitologiya."1980y.
8. Sattiboev M.S. "O'simlik hujayrasi".Т. 1990y.